

SUDLAR FAOLIYATIDA ODILLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA SO'NGI YILLARDA O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR

Choriyeva Sevinch Fayzulla qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada huquqiy demokratik va kuchli fuqarolik jamiyati qurishda sud organlarining roli, sud- huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish bo'yicha so'ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar, uning samarasi va sarhisobi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *sud tushunchasi, odil sudlov, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish.*

Sud - odil sudlovni amalga oshirishga haqli bo'lgan birdan-bir davlat hokimyati organi. Sud hokimyati sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, ma'muriy, iqtisodiy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatlidir. Sudyalar o'zlari qabul qilgan qarorlar va hukmlarni davlat nomidan chiqaradilar. Bu qoida hal qiluv qarorlari va hukmlari hamma, shu jumladan, davlat organlari tomonidan bajarilishi majburiydir.

Odil sudlovning samarasi, albatta, sudlar tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning majburiyligi bilan bevosita bog'liq.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki sudning qarorlari davlat majburlov kuchi bilan ta'minlanadi.

Oshkoralik tamoyili odil sudlov faoliyatining huquqiy asosini belgilab beradigan muhim konstitutsiyaviy tamoyillardan biridir. O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga kiruvchi barcha sudlarda ishlar ochiq ko'riladi.

Konstitutsiyaning 130-moddasiga muvofiq odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi va O'zbekiston Respublikasida sud hokimyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, siyosiy partiyalardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi deb aytilgan.

O'zbekiston Respublikasi sud tizimining xalqaro andozalarga mos ekanligini tasdiqlovchi hujjatlardan biri- bu aybsizlik prezumtsiyasi qoidasining qonunda aks ettirilganidir. Bu milliy huquqiy tizimning jiddiy yutug'i va fuqarolik jamiyatining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda barcha sudyalar bir xil maqomga ega. Sudyaning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

"Sud tizimi mustaqil bo'lmas ekan, jamiyatimizda rivojlanish bo'lmaydi. Sud idorasiga ishi tushgan har kim ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim. Yangi O'zbekistonda har qanday bahsli

masalaga adolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishi kerak. Sudyalar ishiga har qanday aralashuv keskin jazolanadi, ularning xavotirsiz ishlashlari uchun barcha sharoit yaratiladi",- deya ta'kidlaydi Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

"Sudyaning ongida – adolat, tilida haqiqat, dilida- poklik bo'lishi kerak", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mamlakat sud tizimi vakillari, o'zbek sudyalari oldiga ana shunday haqqoniy talabni qo'ydi.

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, eng avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlashga, shuningdek, inson sha'ni qadr qimmatini kamsitilishiga, qonuniy manfaatlarini cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yana bir ahamiyatli jihat: jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritish uchun qaytarish insituti bekor qilindi va dalillarga baho berish insituti takomillashtirildi. Bu o'z navbatida, ish bo'yicha barcha holatlar sud tomidan har tomonlama tekshirilib, dalillarga xolisona baho berilgan holda oqlov hukmlari ko'payishiga asos yaratiladi.

Buni Birlashgan Millatlar tashkiloti inson huquqlari kengashining Sudyalar va advokatlarning mustaqilligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachi Diego Garsiya – Sayan ham alohida e'tirof etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga muvofiq 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Uning 2-yo'nalishi "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari deb nomlandi. Shu bo'yicha bir qator vazifalarni bajarish belgilab qo'yildi.

1.Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

sudyalarning va sud aparati xodimlarining mavqeyini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

"Xabeas-korpus" institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

Sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud aparatini mustahkamlash;

Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

2.Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganchilik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish:

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

3.Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

jinoyat, va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy, jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik, va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish; elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

4.Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish borasidagi faoliyatini muofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy eksterimz va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarinin kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish;

5.Sud- huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarni tahlil qilish, tizimli huquqbuzarlikni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash, va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbuzarlikni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha i huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

6, Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish: davlat organlarining yuridik xizmat faoliyati samaradoligini oshirish; advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy, va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish; notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish kabi vazifalar belgilandi.

Bu bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. 2017-yilda Davlat rahbarining g'oyasi va tashabbusi bilan joriy etilgan, O'zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoning ilg'or demokratik davlatlari qatoridan joy olishi va jahon maydonida munosib o'rin egallashi asosiy maqsad etib belgilangan Harakatlar strategiyasi mamlakatning yaqin istiqbolidagi taraqqiyot yo'lining bosh ustuvor hujjati sifatida xalqaro jamoatchilik, nufuzli ekspert-mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari, siyosatshunoslar tomonidan yuqori baholandi.

Shu sababli 2020- yilning 4-dekabr kuni "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Harakatlar strategiyasi hamda joriy "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturining ijrosi haqida keng jamoatchilikni xabardor etish maqsadida 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 5 ta matbuot anjumani tashkil etildi.

Matbuot anjumanida "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud- huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari" bo'yicha maruzalar ham tinglandi.

Unda Oliy sud, Bosh prokuror, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi mutasaddilari, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Matbuot anjumanida Harakatlar strategiyasining mazkur yo'nalishida to'rt yil davomida bajarilgan ishlar sarhisob qilinib, xususan, joriy yilgi Davlat dasturining ikkinchi yo'nalishi ijrosi qanday ta'minlanayotgani borasida vazirlik, davlat organlari mutasaddilari tomonidan ma'lumot berildi.

Xususan, matbuot anjumanida yuridik fan va ta'limni takomillashtirish, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish yuzasidan Prezident Farmoni, hukumat qarori bilan tasdiqlangan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizomlar haqida ma'lumot berildi va boshqa masalalar atroflicha muhokama etildi.

Mamlakatimizni 2017- 2021- yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilish etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish va hamda fuqarolik jamiyati instituti, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasi" – "Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettida utuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi.

Bu bo'yicha 100 ta maqsad belgilab olindi. 15-maqsad: Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlaring odil sudlovga erishish darajasi oshirish etib nomlandi. Shu asosda quyidagi ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutildi:

"Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustida sud nazoratini kuchaytirish.

Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish.

Sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarani sudga taaluqligidan qat'iy nazar qabul qilish va vakolatli sudlarga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarini hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish.

Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'oya va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish.

Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy- huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutlarini qo'llash doirasini kengaytirish.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi ta'minlashda sudlar hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha qator ta'sirchan mexanizmlar yaratish .

Sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarini joriy etish.

Sud tizimini tartibga soluvchi normativ -huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borish va boshqa ustuvor vazifalar belgilanib olindi. Bu borada hozirda qator ishlar amalga oshirilmoqda

Odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan huquq normalari bajarish borasida:

birinchidan, sud hokimyatini demokratlashtirish barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish, sud hokimyatining mustaqilligini, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, "Xabeas korpus" institutini kengaytirish, sud tizimini mustahkamlash, shuningdek, tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha samarali chora –tadbirlar ko'rildi;

ikkinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, nizolarni sudgacha hal etish, taraflarni yarashtirishda advokatlarning vakolati kengaytirildi. Sud ishlarining adolatliligi, ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash uchun "elektron adolat" tizimi joriy etildi;

uchinchidan, jabrlanuvchilar, guvohlar, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish tizimi yaratildi. Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarini tuzishga yo'l ochildi. Bugungi kunda tintuv, voqea joyida olingan ko'rsatmalarni tekshirish, tergov eksperimenti kabi protsessual harakatlarni videotasvirga olish orqali majburiy qayd etish talablari qonun bilan mustahkamlanadi;

to'rtinchidan, ma'muriy, jinoiy, jinoiy- protsessual, jinoiy- ijroiya, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilik takomillashtirilmoqda. Jamoat birlashmalari kafolati ostidagi shaxslarni avf etish va jazodan ozod qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy etildi. "Jasliq" ixtisoslashtirilgan koloniyasining yopilishi muhim voqea bo'ldi;

beshinchidan, fuqarolarimiz huquqlari va manfaatlarini, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, himoya qilish va ularning O'zbekistonga qaytishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Misol sifatida Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli mojarolar hududlaridan 541 nafar fuqaro, asosan, ayollar va bolalarning Vatanimizga qaytarilib keltirilganini aytish mumkin.

Mamlakatimizda sud tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, avvalombor, hokimyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirishga xizmat qiladi. Natijada sud tizimining ijro etuvchi hokimyatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritishiga imkon beradi.

Sud –huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish bo'yicha so'ngi yillarda olib borilayotga ishlar:

-Sud -tergov faoliyatida tergov jarayonida, jabrlanuvchi, guvoh, gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ko'rsatmasi bo'yicha (agar aniq isbot bo'masa) qaror qabul qilish taqiqlanadi;

-Oliy sud va Oliy xo'jalik sudlari birlashtirildi va ular asosida fuqarolik, jinoiy, ma'muriy, iqtisodiy sohalarda sud hokimyatining birlashgan organi yaratildi;

- Oliy sud qoshida sudlar faoliyatini ta'minlash bo'yicha departament tashkil qilindi;

- O'zbekiston Respublikasi sudyalari oliy kengashi tashkil qilindi va uning vazifasi qilib sud hokimyatining mustaqilli, konstitutsiyaviy prinsiplarga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashish belgilandi;

-Konstitutsion sud vakolatlari kengaytirildi va uning doirasiga Prezident qaror va farmonlarining Konstitutsiyaga qanchalik mosligini aniqlash vakolati kiritildi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud- huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda sud- huquq tizimini isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab qo'yildi. Farmonda sud hokimyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, odil sudlovga erishish imkoniytlarini oshirish kabi masalalar sud huquq tizimi islohotlarining asosiy maqsadi qilib belgilandi. Bu maqsadga erishish yo'lidagi sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari aniq vazifalar yuklatildi.

Davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud- huquq yo'nalishida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki mustaqil va xolis sudni talab qilish har bir insonning huquqi hisoblanadi. Bu huquq Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasi va O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan boshqa xalqaro hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Faqat mustaqil sudgina har bir fuqaroning ishini sudda xolis va oshkora ko'rish orqali toptalgan haq-huquqlarini himoya qilish mumkinligiga ishonoch uyg'ota oladi. Bu jihatdan Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimyatining chinakam mustaqilligi ta'minlash, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga zamin yaratdi.

Xulosa o'rnida shuni aytamanki , O'zbekistonda odil sudlov faoliyatining asosi inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'lmog'i lozim. Shu bilan bir qatorda sudlar faoliyatida odillikni ta'minlash uchun bu sohani yetuk, malakali kadrlar bilan ta'minlash, sudyalik lavozimiga kadrlarni tanlash va tavsiya etish bo'yicha zamonaviy demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy mexanizmni ishlab chiqishimiz lozim. Eng muhimi bu soha bo'yicha Xalqaro normalarga mos keladigan qonunchilikni yaratishimiz, takomillashtirishimiz va hayotga tadbiiq etmog'imiz lozim.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.
2. “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.
3. “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
6. Lex. Uz .
7. Insonhuquqlari.uz.
8. “O‘zbekiston davlati va huquq asoslari” darslik O. Karimova, N. Ismatova, Sh. Sariqov, O. Amanova